

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**KON KORXONALARINI ELEKTRLASHTIRISH  
fanidan**

**USLUBIY QO‘LLANMA**

**Toshkent – 2021**

**Tuzuvchilar:** Raximov A.V., Abdiyev O.X., Haqberdiyev A.L.

5312200 – “Konchilik elektr mexanikasi” bakalavriat ta’lim yo’nalishi uchun “Kon korxonalarini elektrlashtirish” fanidan kurs loyihalarini bajarish bo’yicha uslubiy qo’llanma. – Toshkent: ToshDTU, 2021.- 40 b.

Ushbu uslubiy qo’llanma “Kon korxonalarini elektrlashtirish” fanining dasturi asosida ishlab chiqilgan bo’lib, shu fandan kurs loyihasini bajarish tartibi keltirilgan.

Ushbu uslubiy qo’llanmada yer osti va ochiq kon korxonalarining elektr ta’minotini loyihalash, jumladan, elektr yuklamalarini hisoblash, kuch transformatorlarini, elektr tarmoqlarini tanlash, qisqa tutashuv toklarini hisoblash, elektr tarmoqlarni, elektr uskunalarni tanlash hamda elektr ta’minoti sxemasini tuzish tartiblari keltirilgan.

Uslubiy qo’llanma oliy ta’lim bakalavriat bosqichining 5312200 – “Konchilik elektr mexanikasi” yo’nalishi uchun mo’ljallab tuzilgan.

*Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-uslubiy kengashi qarori bilan chop etildi.*

**Taqrizchilar:** Djo’rayev O.A. - “Sanoat xavsizligi” DQ boshqarmasi boshlig’i muovini

Pirmatov N.B. - “Elektr mashinalar” kafedrası mudiri, t.f.d., prof.

## **1. Kurs loyihasining maqsadi va vazifasi**

Kurs loyihasini bajarishdan maqsad talabalarning “Kon korxonalarini elektrlashtirish” fani bo‘yicha olgan nazariy va amaliy bilimlarini umumlashtirish, mustahkamlash va kon korxonalarini elektrlashtirish bo‘yicha muayyan masalalarni yechish uchun tatbiq qilishni o‘rganishdir.

Kurs loyihasining vazifasi talabalarni bitiruv ishiga tayyorlash va ularga ushbu soha bo‘yicha loyihalash ishlarini, jumladan bosh pasaytiruvchi podstansiyalar uchun kuch transformatorlarini tanlash, elektr tarmoqlarini tanlash, qisqa tutashuv toklarini hisoblash, elektr uskunalarni tanlash, elektr ta‘minoti sxemalarini tuzishni o‘rgatish hisoblanadi.

### **1.1. Konchilik korxonalarida elektr ta‘minoti tizimini loyihalash**

Konchilik korxonalarining elektrlashtirish tizimini loyihalash uchun elektr ta‘minoti manbaining tavsiflari va korxonadagi elektr energiya iste‘molchilari to‘g‘risidagi kerakli ma‘lumotlar bo‘lishi kerak.

Elektr manbai bo‘yicha quyidagilar ma‘lum bo‘lishi lozim:

- elektr manbaining kuchlanishi;
- konchilik korxonasidan elektr manbaigacha bo‘lgan masofa;
- elektr manbaining quvvati;
- ta‘minlovchi podstansiya shinasidagi qisqa tutashuv quvvati;
- reaktiv quvvatni qoplash, releli himoya, avtomatika, telemexanika, dispetcherlash va elektr energiyani hisoblash bo‘yicha masalalarga elektr ta‘minoti tizimi tomonidan qo‘yiladigan talablar.

Elektr energiya iste‘molchilari to‘g‘risida quyidagilar ma‘lum bo‘lishi kerak:

- iste‘molchilarning turlari, rusumlari, sonlari, nominal quvvatlari, kuchlanishlari;
- konchilik korxonasida elektr energiya iste‘molchilari, elektr uskunalari va elektr tarmoqlarning joylashtirish sxemasi;
- konchilik korxonasining yillik ishlash rejimi (bir yildagi ishchi kunlar soni, bir kundagi ish smenalar soni);
- bir yildagi ishlash vaqti soni, elektr ta‘minoti bo‘yicha ishonchlilik toifasi.

Shular bilan birga loyihani bajaruvchi konchilik elektrmexanigi texnologik jarayonlarni va kon korxonasining rivojlanish istiqbolini bilishi lozim.

Aytilgan ma‘lumotlarga muvofiq konchilik korxonalarining elektr ta‘minoti tizimini loyihalash quyidagi tartibda olib boriladi:

- elektr ta'minoti tizimining tuzilishi sxemasi chiziladi (har bir podstansiyalar uchun).

- aktiv va reaktiv elektr yuklamalar hisoblanadi va bularning natijasida to'liq elektr yuklama aniqlanadi;

- elektr yuklamalarning shartli markazlari aniqlanib, bosh pasaytiruvchi podstansiyalarning o'rnatish joylari belgilanadi;

- bosh pasaytiruvchi podstansiyalar uchun kuch transformatorlarining soni va quvvatlari hisoblanib rusumlari tanlanadi;

- elektr tarmoqlarning ko'ndalang kesim yuzalari hisoblanadi va rusumlari tanlanadi, kuchlanishni rostdash vositalari tanlanadi, agar zarur bo'lsa;

- qisqa tutashuv toklari va quvvatlari belgilangan nuqtalar uchun hisoblanadi;

- elektr uskunalarning rusumlari tanlanadi;

- releli himoya, avtomatlashtirish, boshqarish, signallash, telemexanika, elektr energiyani hisoblash vositalari tanlanadi;

- elektr ta'minoti tizimining energetik ko'rsatkichlari hisoblanadi, reaktiv quvvatning o'rni qoplovchi vositalar tanlanadi;

- elektr xavfsizlik jumladan, himoyaviy no'llash, himoyaviy zaminlash va himoyaviy uchirish chora tadbirlari vositalari hisoblanib tanlanadi;

Loyihaning chizma qismida quyidagilar bo'lishi kerak:

- konchilik korxonasi elektr energiya iste'molchilari, elektr qurilmalar va uskunalari, elektr tarmoqlarning joylashish sxemalari;

- konchilik korxonasi elektr ta'minoti tizimining bir chizikli prinsipial sxemalari;

Ushbu kurs loyihasida ochiq va yer osti konchilik korxonalarini elektr ta'minoti tizimining yuqori kuchlanishli qismlari uchun yuqorida keltirilgan o'zaro bog'liq bo'lgan ba'zi bandlar bajarilishi ko'zda tutiladi.

## **1.2. Kurs loyihasining mazmuni va hajmi**

Kurs loyihasi ochiq va yer osti konchilik korxonalarini elektr ta'minotiga bag'ishlangan bo'lib, izoh yozuvi va chizmalardan iborat bo'ladi. Izoh yozuvida, topshiriqqa asosan, loyiha quyidagi bo'limlari bo'yicha bajarilgan hisob tanlov ishlari keltiriladi:

1. Kirish.

2. Kurs loyihasini bajarish uchun topshiriq va dastlabki ma'lumotlar.

3. Elektr yuklamalarni hisoblash va bosh pasaytiruvchi podstansiya (BPP) uchun kuch transformatorini tanlash.

4. Elektr tarmoqlarini hisoblash va tanlash.

5. Qisqa tutashuv toklarini hisoblash.
6. Elektr uskunalarni tanlash.
7. Elektr ta'minoti tizimi sxemasini tuzish.
8. Xulosa.

Izoh yozuvi 20-25 betlardan iborat bo'ladi.

Chizma A1 formatli vatmanda, elektr ta'minoti sxemasidan iborat bo'ladi.

## **2. Kurs loyihasini bajarish uchun uslubiy ko'rsatmalar.**

Talabalar kurs loyihasini bajarishlari uchun "Kon korxonalarini elektrlashtirish" fani bo'yicha tegishli nazariy ma'lumotlarga ega bo'lishlari va amaliy mashg'ulotlarni bajargan bo'lishlari lozim.

Kurs loyihasini bajarish uchun rahbar tomonidan tegishli topshiriq beriladi. Unda barcha kerakli bo'lgan ma'lumotlar va chizmalar keltiriladi. Bu ma'lumotlar, chizmalar va topshiriq variantlari ilovalarda keltirilgan.

Kurs loyihasini bajarishdan oldin talabalar berilgan topshiriqni va ushbu uslubiy qo'llanmani diqqat bilan o'rganib chiqishlari shart.

Izoh yozuvi uchun sarvaraq tuziladi (ilovada namunasi keltirilgan).

Izoh yozuvida kurs loyihasining har bir bo'limi uchun sarlavha yoziladi. Hisoblashlarga qisqacha tushuntirish berilishi kerak. Har bir ko'rsatkich va miqdorlarning o'lchov birliklari SI sistemasi bo'yicha aniq va to'g'ri ko'rsatilishi lozim. Chizmalar uchun chizmachilik asboblaridan foydalanishlari kerak. Chizmalardagi shartli belgilar Davlat standarti talablariga muvofiq bo'lishi lozim.

## **3. Kurs loyihasini bajarish tartibi**

### **1. Kirish.**

Kon korxonalarining asosiy ishlarini bajarishda elektr energiyasining va elektr ta'minoti tizimining ahamiyati to'g'risida yoziladi.

### **2. Kurs loyihasini bajarish uchun topshiriq va dastlabki ma'lumotlar.**

Kon korxonasining turi, elektr ta'minoti tizimi sxemasi, elektr iste'molchilarning turlari, ko'rsatkichlari, elektr tarmoqlarning turlari, ularning uzunligi, qisqa tutashuv toklarini hisoblash uchun ko'rsatmalar beriladi.

### **3. Elektr yuklamalarni hisoblash va BPP uchun kuch transformatorini tanlash.**

Ma'lumki, to'liq elektr quvvat aktiv va reaktiv tashkil etuvchilardan iboratdir. Konchilik korxonalarini iste'molchilari aktiv va reaktiv elektr

quvvat bilan ta'minlanadi. Aktiv quvvat foydali ishni bajarish shuningdek aktiv va reaktiv energiyalarni uzatishdagi va o'zgartirishdagi yo'qotishlarni qoplash uchun sarflanadi. Reaktiv quvvat asosan asinxron dvigatellarda va transformatorlarda magnit maydonlarni hosil qilish va to'g'rilovchilar tomonidan iste'mol qilinadigan reaktiv energiyani qoplash uchun sarflanadi. Bu iste'mol qilinadigan elektr quvvatlar elektr yuklama hisoblanadi.

Elektr ta'minoti tizimining barcha tashkil etuvchi elementlari elektr yuklamaga bog'liq bo'ladi va bunga muvofiq tanlanadi.

Aktiv va reaktiv elektr yuklamalarni to'g'ri hisoblash podstansiyalarning sonini, joylashtirilishini, kuch transformatorlarini sonini va quvvatini, elektr tarmoqlarning kuchlanishi va turini, himoya vositalarini hamda reaktiv quvvatni o'rnini to'ldiruvchi qurilmalarni tanlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Loyihalashtirilayotgan elektr yuklamalar qiymatini orttirib hisoblansa elektr uskunalar, elektr tarmoqlar va elektr energiyaning isrof qilinishiga olib keladi, shuningdek kamaytirib hisoblansa elektr uskunalar, elektr tarmoqlarning zo'riqib ishlashiga, elektr energiya yo'qotilishining oshishiga, sifatining pasayishiga, ishonchlilikning kamayishiga olib keladi. Elektr yuklamalarni hisoblash uchun bir necha usullarni jumladan elektr energiyaning solishtirma sarfi, talab koeffitsiyenti, o'rtacha quvvat va maksimum koeffitsiyenti (tartiblashtirilgan diagrammalar) usullarini qo'llash mumkin.

Elektr energiyaning solishtirma sarfi usulida iste'molchilarning unumdorligi va bir birlik mahsulotning ishlab chiqarishga to'g'ri keladigan elektr energiya miqdori ma'lum bo'lishi kerak. Aktiv ( $R_x$ ) va reaktiv ( $Q_x$ ) quvvatlar hisoblanadi va bularning natijasida to'liq quvvat aniqlanadi. Bu usul yuklamalari kam o'zgaradigan yoki o'zgarmaydigan iste'molchilar uchun qo'llash qulay bo'ladi.

Talab koeffitsiyenti usulida iste'molchilarning o'rnatilgan quvvatlari aniqlanib talab va quvvat koeffitsiyentlari orqali aktiv va reaktiv quvvatlar hisoblanadi va bularning natijasida to'liq quvvat aniqlanadi. Ushbu uslubda hisoblashlar murakkab bo'lmaydi, lekin taxminiy hisoblanadi.

O'rtacha quvvat va maksimum koeffitsiyenti usulida ehtimollar nazariyasiining asosiy qoidalari qo'llanadi va turli toifadagi har bir elektr iste'molchilarning yuklama grafiklarini bilish talab qilinadi. Iste'molchilar ko'p sonli bo'lganda hisoblashlar murakkablashadi.

Konchilik korxonalarini elektr yuklamalarini hisoblash uchun talab koeffitsiyenti usuli qo'llaniladi.

Elektr yuklamalarni hisoblash talab koeffitsiyenti usulida bajariladi. Buning uchun yuklamalar jadvali tuziladi va quyida keltirilgan formulalarga asosan hisoblarni bajarib jadval to'ldiriladi.

1-jadval

Yuklamalar jadvali

№	Iste'molchilarning nomi va turi	$P_n$ кВт	n	$P_{o'm}$ кВт	$K_t$	$\cos \varphi$	$\operatorname{tg} \varphi$	$P_x$ кВт	$Q_x$ кВАп
1									
								$\Sigma P_x$	$\Sigma Q_x$

bu yerda:  $P_n$  -iste'molchining nominal quvvati, кВт;

$n$  – iste'molchilar soni;

$P_{o'm} = P_n \cdot n$  – o'rnatilgan quvvat, кВт;

$K_t$  – iste'molchilar uchun talab koeffitsiyenti, ma'lumotnomadan olinadi;

$\cos \varphi$  -iste'molchi uchun quvvat koeffitsiyenti, ma'lumotnomadan olinadi;

$\operatorname{tg} \varphi$  -  $\cos \varphi$  dan topiladi, iste'molchi elektr yuritmasida sinxron dvigatel qo'llanilsa, o'zuvchi  $\cos \varphi$  bo'ladi va  $\operatorname{tg} \varphi$  manfiy ishorali bo'ladi ( $-\operatorname{tg} \varphi$ ).

$P_x = P_{o'm} \cdot k_t$  – hisoblanadigan aktiv quvvat, кВт;

$Q_x = P_x \cdot \operatorname{tg} \varphi$  - hisoblanadigan reaktiv quvvat, кВт;

$\Sigma P_x$  - hisoblangan aktiv quvvat yig'indisi, кВт;

$\Sigma Q_x$  - hisoblangan reaktiv quvvatlar yig'indisi, кВАп.

Jadval natijasi bo'yicha quvvatlar yig'indisidan foydalanib hamda ekskavatoridagi yoki kon korxonasidagi boshqa transformatorlar quvvatini hisobga olib to'liq quvvat hisoblanadi:

$$S_x = \sqrt{\Sigma P_x^2 + \Sigma Q_x^2} + \Sigma S_{tr}, \text{ кВА};$$

bu yerda:  $\Sigma S_{tr}$  - transformatorlar nominal quvvatlari yig'indisi.

Hisoblangan to'liq quvvatga asosan transformator nominal quvvati bo'yicha tanlanadi. Bunda iste'molchilarning elektr energiya uzluksizligi bo'yicha qaysi toifaga tegishliligiga qarab bitta yoki ikkita transformator tanlanadi.

Bitta transformator tanlash sharti:

$$S_x \leq S_{n.tr}, \text{ kBA};$$

Ikkita transformatorning har biri quyidagi shart bo'yicha tanlanadi:

$$S_x \cdot 0,75 \leq S_{n.tr}, \text{ kBA};$$

bu yerda:  $S_{n.tr}$  - transformatorning nominal quvvati, kBA.

Quvvati kamroq transformator tanlash zarurati tug'ilsa, uni zo'riqib ishlash shartlari bo'yicha tekshirish lozim. Transformatorni o'zining nominal quvvatining 40 % gacha zo'riqtirib ishlatish mumkin. Bunday zo'riqib ishlashi sutkada 6 soatdan oshmasligi kerak. Zo'riqib ishlash 5 kundan ortiq bo'lmasligi lozim.

#### 4. Elektr tarmoqlarni hisoblash va tanlash.

Elektr tarmoqlar ta'minlovchi va taqsimlovchilarga bo'linadi. Elektr manbaidan kon korxonasining bosh pasaytiruvchi podstansiyasiga keladigan elektr ta'minlovchi bo'ladi. Bosh pasaytiruvchi podstansiyadan iste'molchilarga boradigan elektr tarmoq taqsimlovchi bo'ladi. Konchilik korxonalarida havo liniyalari, kabel liniyalari va elektr simlar qo'llaniladi.

Havo liniyalari ochiq havoda tayanchlar vositasida o'tkaziladi. Alyumin, po'lat va alyuminiy-po'latdan tuzilgan aralash simlar qo'llaniladi va ular tayanchlarga izolyatorlar vositasida osib qo'yiladi.

Kabellar kuch kabellari va kontrol kabellarga bo'linadi. Kuch kabellari zirxli va egiluvchan bo'ladi. Zirxli kabellarda uchta tok o'tkazuvchi tola bo'lib, ular alyuminli yoki misli bo'ladi, tolalar bir-biridan izolyatsiyalangan va umumiy izolyatsiyalarga ega bo'ladi. Egiluvchan kabelda to'rtta tola bo'lib, uchta yuklama toki uchun va bittasi zaminlash uchun qo'llaniladi. Bu tolalar misdan bo'lib, mayda simlardan tashkil topadi. Tolalar bir-biridan izolyatsiya qilingan va umumiy izolyatsiyaga ega bo'ladi. Kabel tarmoqlari ochiq havoda va yer ostida o'tkazilishi mumkin. Elektr tarmoqlar yuqori kuchlanishli va past kuchlanishli bo'lishi mumkin.

Elektr tarmoqlarni hisoblashdan maqsad ularning ko'ndalang kesim yuzasini aniqlash va tegishli rusumini tanlashdir.

Elektr tarmoqlarni tanlash to'rt ko'rsatkich - yuklama toki, tokning tejamli zichligi, kuchlanishning yo'qotilishi va qisqa tutashuv tokidan qizishga chidamlilik bo'yicha bajariladi. Natijaviy qilib eng katta kesim yuzali elektr tarmoq tanlanadi va uning rusumi qabul qilinadi.

ETQ- elektr qurilmalarning tuzilishi qoidalariga (ПУЭ) asosan:



-yuklama toki va kuchlanishning yo'qotilishi bo'yicha barcha elektr tarmoqlar tanlanadi;

-bir yilda yuklamalari maksimumining umumiy ishlash vaqti 4000- 5000 soatgacha bo'lgan, kuchlanishi 1000 B dan past bo'lgan alohida iste'molchilarni asosiy tarmoqqa ulovchi shoxobchalar, vaqtinchalik o'tkazilgan va qisqa muddat (3-5 yil) xizmat qiladigan tarmoqlar tokning tejamli zichligi bo'yicha tanlanmaydi.

-qisqa tutashuv tokidan qizishga chidamlilik bo'yicha faqat kuchlanishi 1000 B dan yuqori bo'lgan kabel tarmoqlar tanlanadi.

Yuklama toki quyidagicha aniqlanadi.

Kuch transformatorlariga keladigan tarmoq uchun yuklama toki quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$I_{yu} = \frac{\sum S_n}{\sqrt{3} \cdot U_n}, \quad A$$

bu yerda:  $S_n$ - transformatorning nominal quvvati,  $\kappa BA$ ;

$U_n$ -transformatorning birlamchi kuchlanishi,  $\kappa B$ .

Tashqi elektr ta'minoti tizimidan keladigan havo liniyasining tokini hisoblash uchun ikkala transformatorning quvvati hisobga olinishi kerak.

Elektr tarmoqdan ta'minlanadigan iste'molchilarning quvvati  $P_n$  berilganda yuklama toki quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$I_{yu} = \frac{\sum P_n \cdot k_t}{\sqrt{3} \cdot U_n \cdot \cos \varphi}, \quad A$$

bu yerda:  $\sum P_n$  -iste'molchilarning nominal quvvati,  $\kappa BT$

$k_t$  - talab koeffitsiyenti

$U_n$  -iste'molchilarning nominal kuchlanishi,  $\kappa B$

$\cos \varphi$  - iste'molchilarning quvvat koeffitsiyenti.

Elektr tarmoqdan ta'minlanadigan iste'molchilarning aktiv quvvati  $P_n$  (dvigatel) va to'liq quvvati  $S_n$  (transformator) berilganda yuklama toki quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$I_{yu} = \frac{\sum P_n \cdot k_t}{\sqrt{3} \cdot U_n \cdot \cos \varphi} + \frac{\sum S_n}{\sqrt{3} \cdot U_n}, \quad A$$

Hisoblab topilgan tokning miqdoriga muvofiq ma'lumotnomadan tarmoqning ko'ndalang kesim yuzasi va rusumi tanlanadi. Oldindan tarmoqning materiali va o'tkazish usuli aniqlanishi kerak.

Tokning tejamli zichligi bo'yicha tarmoqning ko'ndalang kesim yuzasi quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$S = \frac{I_{yu}}{j}, \quad \text{MM}^2$$

bu yerda:  $I_{yu}$  - yuklama toki, A;

$j$ -tokning tejamli zichlik miqdori, A/mm<sup>2</sup>, ma'lumotnomadan olinadi.

Zarurat bo'lsa, hisoblangan  $S$  standart miqdoriga almashtiriladi.

Ikkita ko'rsatkich bo'yicha tanlangan tarmoqlardan kesim yuzasi kattasi qabul qilinadi va undagi kuchlanishning yo'qotilishi aniqlanadi:

$$\Delta U = \sqrt{3} I_{yu} L (r_0 \cos \varphi + x_0 \sin \varphi), \quad \text{B}$$

bu yerda:  $I_{yu}$  - yuklama toki, A;

$L$  - tarmoqning uzunligi; km

$r_0, x_0$  - tarmoqning aktiv va induktiv solishtirma qarshiliklari, OM\KM, ma'lumotnomadan olinadi.

$\sin \varphi - \cos \varphi$  orqali topiladi.

Kuchlanishning yo'qotilish miqdori tarmoq kuchlanishining 5% dan oshmasligi lozim.

Agar  $\Delta U \leq 0,05 U_n$  sharti bajarilsa tarmoq to'g'ri tanlangan bo'ladi, aks holda, standart bo'yicha navbatdagi kesim yuzasi katta tarmoq qabul qilinib hisoblash takrorlanadi.

Qisqa tutashuv tokidan qizishga chidamlilik bo'yicha tarmoqning kesim yuzasi quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$S = \frac{I_{\infty}}{C} \sqrt{t_q}$$

bu yerda:  $I_{\infty} = I_q$  - qisqa tutashuv tokining barqarorlashgan qiymati, A

$t_q$  - qisqa tutashuvning keltirilgan vaqti:

- yer osti kabel tarmoqlari uchun - 0,25 sek;

- ochiq kon kabel tarmoqlari uchun - 0,25- 1,2 sek.

$C$  – qisqa tutashuvda ajralib chiqqan issiqlik miqdoriga bog'liq bo'lgan koeffitsiyent (10 kVgacha);

mis simli kabellar uchun -  $C = 165$

alyuminiy simli kabellar uchun -  $C = 90$

Bu hisoblash qisqa tutashuv toklarini aniqlagandan keyin bajariladi.

## 5. Yuqori kuchlanishli tarmoqlarda qisqatutashuv toklarini hisoblash

Konchilik korxonalarida elektr ta'minoti tizimida normal holat bilan birga avariya holatlari ham sodir bo'lib turadi, jumladan zo'riqish, kuchlanishning oshib ketishi, kuchlanishning kamayib ketishi va o'chib qolishi qisqa

tutashuv holatlaridir. Bulardan eng xavfli va katta talofat keltiruvchi qisqa tutashuv holatidir.

Elektr ta'minoti tizimining aksariyat tashkil etuvchilari ma'lum bir vaqt davomida qisqa tutashuv toklariga chidamli bo'lishi kerak bo'ladi. Shu sababli elektr tarmoqlari va elektr uskunalari qisqa tutashuv toklariga tekshiriladi.

Yana qisqa tutashuvdan releli himoya vositalari qo'llaniladi. Bularning ishlashlari ham qisqa tutashuv toklari va quvvatlari malum bo'lishi kerak. Shu maqsadda qisqa tutashuvning quyidagi ko'rsatkichlari hisoblanadi:

$I_{\infty}$  - barqarorlashga qisqa tutashuv tokining amal qiluvchi qiymati (absolyut qiymati);

$I_z$  - qisqa tutashuvning zarb toki qiymati;


$i_z$  - zarb tokining amal qiluvchi qiymati;

$S_q$  - qisqa tutashuv quvvati.

Qisqa tutashuv toklarini hisoblash uchun hisoblash sxemasi tuziladi, undan almashtirish sxemasiga o'tiladi. Bunda elektr tarmoqlarining barcha elementlari qarshiliklar bilan almashtiriladi. Shular asosida qisqa tutashuv toklari hisoblanadi.


Yuqori kuchlanishli tarmoqlarda qisqa tutashuv toklarini hisoblash nisbiy kattaliklarda olib boriladi. Buning uchun bazis quvvat va kuchlanishlar qabul qilinadi. Bazis toklar hisoblanadi. Bazis quvvat sifatida iste'molchilarning o'rnatilgan quvvatlari yig'indisidan katta bo'lgan miqdor qabul qilinadi. Hisoblashga qulay bo'lishi uchun 10 ga taqsimlanuvchi miqdorlar (100 mBA, 1000 mBA va h.k) qabul qilinadi. Bazis kuchlanish sifatida qisqa tutashuv hisoblanayotgan pog'onaning kuchlanishidan 5% ortiq miqdor qabul qilinadi (6,3 kV, 10,5 kV, 37 kV 115 kV va h.k.).

Hisoblash sxemasida elektr manbaidan iste'molchigacha bo'lgan barcha elektr ta'minoti tizimining tashkil etuvchilari ko'rsatiladi, ularning tegishli ko'rsatkichlari keltiriladi va qisqa tutashuv hisoblanadigan nuqtalar ko'rsatiladi.



1-rasm. Qisqa tutashuv tokini hisoblash sxemasi

Almashtirish sxemasida elektr ta'minoti tizimining barcha tashkil etuvchilari qarshiliklar bilan almashtiriladi.



$X_1^*$ - sistemaning qarshiligi

$X_2^*$ - tashqi havo liniyasining qarshiligi

$X_3^*$ - kuch transformatorining qarshiligi

$X_4^*$ - ichki havo liniyasining qarshiligi

$X_5^*$ - kabel liniyasining qarshiligi

2-rasm. Qisqa tutashuv tokini hisoblash uchun almashtirish sxemasi  
Hisoblash tartibi keltirilgan sxemalar uchun ko'rsatilgan.

Sistemaning qarshiligini hisoblash

$$x_{1*} = \frac{S_b}{S_q}$$

bu yerda:  $S_b$ —bazis quvvati, mBA;

$S_q$  – sistemaning qisqa tutashuv quvvati, mBA.

Tashqi havo liniyasi  $X_{l1}$  ning qarshiligi

$$x_{2*} = x_0 \cdot l \cdot \frac{S_b}{U_{b1}^2}$$

bu yerda:  $x_0$  -havo liniyasining solishtirma induktiv qarshiligi, om/km;

$l$  - havo liniyasining uzunligi, km;

$U_{b1}$  -birinchi pog'onaning bazis kuchlanishi, kB;

Kuch transformatorining qarshiligini hisoblash

$$x_{3*} = \frac{U_q \% \cdot S_b}{100 \cdot S_{tr.n}}$$

bu yerda:  $S_{tr.n}$  - transformatorning nominal quvvati, mBA;

$U_q \%$  - qisqa tutashuv kuchlanishi.

Ichki havo liniyasi  $X_{l2}$  ning qarshiligini hisoblash

$$x_{4*} = x_0 \cdot l \cdot \frac{S_b}{U_{b2}^2}$$

bu yerda:  $U_{b2}$  - ikkinchi pog'onadagi bazis kuchlanish, kB.

Kabel liniyasi  $K_1$  ning qarshiligini hisoblash

$$x_{5*} = x_0 \cdot l \cdot \frac{S_b}{U_{b1}^2}$$

bu yerda:  $x_0$  - kabelning solishtirma induktiv qarshiligi, Om/km;

$l$  - kabel tarmog'ining uzunligi, km;

K nuqttagacha bo'lgan natijaviy qarshiliklarni hisoblash

K nuqtasigacha  $x_{6*} = x_{1*} + x_{2*}$

$K_1$  nuqtasigacha  $x_{7*} = x_{6*} + x_{3*}$

$K_2$  nuqtasigacha  $x_{8*} = x_{7*} + x_{4*}$

$K_3$  nuqtasigacha  $x_{9*} = x_{8*} + x_{5*}$

Tegishli pogʻonalardagi bazis toklarni hisoblash:

$$I_{b1} = \frac{S_b}{\sqrt{3} \cdot U_{b1}}, \quad \text{KA}; \quad I_{b2} = \frac{S_b}{\sqrt{3} \cdot U_{b2}}, \quad \text{KA}$$

Tegishli nuqtalardagi uch fazali qisqa tutashuv toklarining nisbiy va absolyut qiymatlarini hisoblash

K nuqtada: Nisbiy qiymat  $I_{q^*} = \frac{1}{x_{6^*}}$  Absolyut qiymati  $I_q = I_{q^*} \cdot I_{b1}$ , KA

K<sub>1</sub> nuqtada: Nisbiy qiymat  $I_{q1^*} = \frac{1}{x_{7^*}}$  Absolyut qiymati  $I_{q1} = I_{q1^*} \cdot I_{b2}$ , KA

K<sub>2</sub> nuqtada: Nisbiy qiymat  $I_{q2^*} = \frac{1}{x_{8^*}}$  Absolyut qiymati  $I_{q2} = I_{q2^*} \cdot I_{b2}$ , KA

K<sub>3</sub> nuqtada: Nisbiy qiymat  $I_{q3^*} = \frac{1}{x_{9^*}}$  Absolyut qiymati  $I_{q3} = I_{q3^*} \cdot I_{b2}$ , KA

Tegishli nuqtalardagi qisqatutashuvning zarb toki va zarb tokening amal qiluvchi qiymatlarini hisoblash

Zarb toki qiymatlari:	Zarb tokening amal qiluvchi qiymatlari:
K nuqtada $i_z = 2,55 \cdot I_q$ , KA	K nuqtada $I_z = 1,52 \cdot I_q$ , KA
K <sub>1</sub> nuqtada $i_{z1} = 2,55 \cdot I_{q1}$ , KA	K <sub>1</sub> nuqtada $I_{z1} = 1,52 \cdot I_{q1}$ , KA
K <sub>2</sub> nuqtada $i_{z2} = 2,55 \cdot I_{q2}$ , KA	K <sub>2</sub> nuqtada $I_{z2} = 1,52 \cdot I_{q2}$ , KA
K <sub>3</sub> nuqtada $i_{z3} = 2,55 \cdot I_{q3}$ , KA	K <sub>3</sub> nuqtada $I_{z3} = 1,52 \cdot I_{q3}$ , KA

Tegishli nuqtalardagi qisqa tutashuv quvvatlari qiymatlarini hisoblash:

K nuqtada  $S_q = \sqrt{3} \cdot I_q \cdot U_{b1}$ , MBA

K<sub>1</sub>nuqtada  $S_{q1} = \sqrt{3} \cdot I_{q1} \cdot U_{b2}$ , MBA

K<sub>2</sub>nuqtada  $S_{q2} = \sqrt{3} \cdot I_{q2} \cdot U_{b2}$ , MBA


K<sub>3</sub>nuqtada  $S_{q3} = \sqrt{3} \cdot I_{q3} \cdot U_{b2}$ , MBA

## 6. Elektr uskunalarni tanlash

Elektr uskunalar konchilik korxonasi elektr ta'minoti tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Elektr uskunalar elektr stansiya, podstansiya, taqsimlovchi punktlarga yuqori kuchlanishli taqsimlovchi va past kuchlanishli taqsimlovchi qurilmalarni tashkil qiladi.

Yuqori kuchlanishli elektr uskunalarga yuklama uzgichlar, ajratgichlar, saqlagichlar, ayirgichlar, qisqa tutashtirgichlar, o'lchov transformatorlari, reaktorlar, zaryadsizlantirgichlar kiradi. Yuklama uzgichlar havoli elektr magnit, elegazli, vakuumli bo'ladi.

Bosh pasaytiruvchi podstansiyaning yuqori kuchlanishli taqsimlovchi qurilmasi uchun elektr uskunalar turlarining quyidagi variantlarini qo'llash mumkin:



3-rasm. Yuqori kuchlanishli taqsimlovchi qurilmasi uchun elektr uskunalar turlari: a) ajratkich va saqlagich; b) ajratkich va yuklama uzgich; d) ayirgich va qisqa tutashtirgich.

Past kuchlanishli taqsimlovchi qurilmasi uchun komplet taqsimlovchi qurilmalar qo'llaniladi.

Bu masalani hal qilishda, avval BPP ning YUKTQ va PKTQ lari hamda iste'molchilar uchun elektr uskunalarning turlari tanlanadi. Keyin quyida keltirilgan ko'rsatkichlar bo'yicha ularning rusumlari tanlanadi. Yuqori kuchlanishli elektr apparatlar hamda elektr uskunalarning normal ish holati uchun hisoblangan qiymatlar bo'yicha qabul qilinadi va shikast holatlarga chidamliligi bo'yicha tekshiriladi.

Yuqori kuchlanishli yuklama uzgichlar va komplet taqsimlovchi qurilmalar quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha tanlanadi.

1. Nominal kuchlanish,  $\kappa B U_{n.u} \geq U_{n.t}$

2. Nominal tok,  $A I_{n.u} \geq I_{n.t}$

3. Nominal uzish toki,  $\kappa A I_{n.uz} \geq I_t$

4. Nominal uzish quvvati,  $mBA S_{n.uz} \geq S_t$

Agar ma'lumotnomalarda nominal uzish quvvati  $S_{n.uz}$  berilmagan bo'lsa, qo'yidagi ifoda orqali topiladi:

$$S_{n.uz} = \sqrt{3} I_{uzish} \cdot U_n$$

5. Qisqa tutashuv tokining eng katta amal qiluvchi miqdori,  $\kappa A$

$$I_{ef} \geq I_z$$

Agar ma'lumotnomalarda tokning effektiv qiymati  $I_{ef}$  berilmagan bo'lsa, qo'yidagi ifoda orqali topiladi:

Ajratgich uchun -  $I_{ef} = \frac{1,52}{2,55} i_{din}$

Yuklama uzgich -  $I_{ef} = 1,52 \cdot I_{uzish}$

6. Qisqa tutashuv nominal dinamik toki, A

$$i_{n.din} \geq i_z$$

$t_{n.q.ch}$  vaqtda tokning qizituvchi qiymatiga chidamliligi,  $\kappa A$

$$I_{n.q.ch} \geq I_{t=\infty} \sqrt{\frac{t_q}{t_{n.q.ch}}}$$

$t_{n.q.ch}$  – qizishga chidash vaqti - 5 yoki 10 sek. olinadi.

$t_q$  - qisqa tutashuv keltirilgan vaqti,  $0,25 \div 1,2$  c.

Tenglik belgilarning chap tomonida tanlanadigan uskunaning texnikaviy ko'rsatkichlari keltirilgan, o'ng tomonida iste'molchi yoki elektr tarmoq ko'rsatkichlari keltirilgan.

Ajratkichlar va ayirgichlar 1, 2, 5, 6, 7 shartlar bo'yicha qabul qilinadi va tekshiriladi. Qisqa tutashtirgichlar 1, 6, 7 shartlar bo'yicha qabul qilinadi va tekshiriladi.

Yuqori kuchlanishli saqlagichlar 1, 2, 3, 4 shartlar bo'yicha qabul qilinadi. Faqat bular uchun  $I_{t=0}$  ba  $S_{t=0}$  olinadi.

## 7. Elektr ta'minoti sxemasini tuzish

Hisoblashlar natijasida qabul qilingan vositalarni hisobga olgan holda elektr ta'minotining bir chiziqli prinsipial sxemasi tuziladi. Sxemada tashqi sistemadan keladigan havo liniyasidan to iste'molchilargacha bo'lgan barcha elektr uskunalar va elektr tarmoqlar keltiriladi. Bular tegishli Davlat standarti talabi bo'yicha chiziladi. Podstansiyalarning past kuchlanishli taqsimlovchi qurilmalari va markaziy yer osti podstansiyalari ikki seksiyadan iborat bo'lib, barcha kerakli taqsimlovchi qurilmalar ko'rsatiladi. Jumladan: kiruvchi, seksiya, fider, o'z ehtiyoj transformatorli, o'lchov transformatorli va zaxira komplekt taqsimlovchi qurilmalari. Barcha vositalarning rusumlari va tegishli ko'rsatkichlari keltiriladi.



**Ilovalar**  
Izoh yozuviga sarvaraq namunasi

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

Geologiya-qidiruv va kon-metallurgiya fakulteti

“Konchilik elektrmexanika” kafedrası

“Kon korxonalarini elektrlashtirish” fanidan kurs loyiha

**Mavzu:** “Ochiq kon korxonalarini elektr ta’minoti”


**Bajardi:**

\_\_\_\_\_

**Qabul qildi:**

\_\_\_\_\_

**Toshkent -2021**



1-rasm. Ochiq kon korxonasi elektr ta'minotining tuzilish sxemasi

Ochiq kon korxonasining elektr ta'minoti sxemasi va topshiriq jadvallaridagi qisqartmalar: **XL** - havo liniyalari; **T** - kuch transformatorlari; **KL** - kabel liniyalari; **SN** - suriluvchi podstansiyalar; **U<sub>1</sub>** - birlamchi kuchlanish miqdori; **U<sub>2</sub>** - ikkilamchi kuchlanish miqdori; **BPP** - bosh pasaytiruvchi podstansiya; **YUKU** - yuqori kuchlanishli elektr uskunalar; **KTQ** - komplet taqsimlovchi qurilma; **UP** - ulovchi punktlar; **E** - ekskavatorlar; **B** - burg'ulash mashinalari; **S<sub>k</sub>** - elektr ta'minoti tizimining qisqa tutashuv quvvati; **κ** - **κ11** - qisqa tutashuv toklarini hisoblash nuqtalari.

1-jadval

Ochiq kon korxonalari iste'molchilarining texnik ko'rsatkichlari  
Ochish ishlarida ishlatiladigan ekskavatorlar

Rusumi	Nominal quvvati	Nominal kuchlanishi	O'z ehtiyojlari transformatorlari
ЭБГ - 4	$P_H = 520 \text{ кВТ (с)}$	$U_H = 6 \text{ кВ}$	ТМЭ - 100/6
ЭБГ - 6	$P_H = 1332 \text{ кВТ (с)}$	$U_H = 6 \text{ кВ}$	ТМЭ - 160/6
ЭБГ - 15/40	$P_H = 1450 \text{ кВТ (с)}$	$U_H = 6 \text{ кВ}$	ТМЭ - 160/6
ЭБГ - 10/50	$P_H = 1450 \text{ кВТ (с)}$	$U_H = 6 \text{ кВ}$	ТМЭ - 100/6
ЭБГ - 35/65	$P_H = 2500 \text{ кВТ x 2 (с)}$	$U_H = 6 \text{ кВ}$	ТМЭ - 400/6 x 2
	$P_H = 520 \text{ кВТ (с)}$	$U_H = 6 \text{ кВ}$	ТМЭ - 250/6
			ТМЭ - 100/6

## 2-jadval

## Qazib olish ishlari ekskavatorlari

Rusumi	Nominal quvvati	Nominal kuchlanishi	O'z ehtiyojlari transformatorlari
ЭКГ – 3,2	$P_{ii}=250$ кВТ (А)	$U_{ii}=6$ кВ	ТМЭ – 40/6
ЭКГ – 4,6	$P_{ii}= 250$ кВТ (А)	$U_{ii}=6$ кВ	ТМЭ – 40/6
ЭКГ – 5А	$P_{ii}= 250$ кВТ (А)	$U_{ii}=6$ кВ	ТМЭ – 63/6
ЭКГ – 8И	$P_{ii}= 520$ кВТ (с)	$U_{ii}=6$ кВ	ТМЭ – 100/6
ЭКГ – 10	$P_{ii}= 1332$ кВТ (с)	$U_{ii}=6$ кВ	ТМЭ – 100/6
ЭКГ – 12	$P_{ii}= 1332$ кВТ (с)	$U_{ii}=6$ кВ	ТМЭ – 160/6
ЭКГ – 12,5	$P_{ii}= 1250$ кВТ (с)	$U_{ii}=6$ кВ	ТМЭ – 160/6
ЭКГ – 20	ТС3П – 2500/10	$U_{ii}=6$ кВ	ТМЭ – 400/10

## 3-jadval

## Odimlovchi draglaynlar

Rusumi	Nominal quvvati	Nominal kuchlanishi	O'z ehtiyojlari transformatorlari
ЭШ 6/45 М	$P_n=520$ кВТ (с)	$U_n=6$ кВ	ТМЭ – 250/6
ЭШ 10/70	$P_n= 1250$ кВТ (с)	$U_n=6$ кВ	ТМЭ – 250/6
ЭШ 20/90	$P_n=2500$ кВТ (с)	$U_n=6$ кВ	ТМЭ – 400/6 x 2
	$P_n=260$ кВТ (А)	$U_n=6$ кВ	ТМЭ – 400/6 x 2
ЭШ 40/85	$P_n=2250$ кВТ (с)x2	$U_n=10$ кВ	ТМЭ – 400/10 x 4
	$P_n=500$ кВТ (А)x2	$U_n=10$ кВ	ТМЭ – 400/10 x 4
ЭШ-25/100	$P_n=1900$ кВТ (с)x2	$U_n=6$ кВ	ТМЭ – 400/6 x 2
	$P_n=400$ кВТ (с)x2	$U_n=6$ кВ	ТМЭ – 100/6
ЭШ-100/100	$P_n=3600$ кВТ (с)x4	$U_n=10$ кВ	ТМЭ – 400/10 x 6
	$P_n=500$ кВТ (с)x2	$U_n=10$ кВ	ТМЭ – 400/10 x 6

## 4-jadval


## Burg‘ilash mashinalari

Rusumi	Nominal quvvati	Nominal kuchlanishi
2СБШ-200	$P_n=400$ кВТ	$U_n=380$ В
СБШ-250 МН	$P_n= 386$ кВТ	$U_n=380$ В
СБШ-320	$P_n= 740$ кВТ	$U_n=380$ В
СБУ-160	$P_n= 155$ кВТ	$U_n=380$ В
СБУ-200	$P_n= 250$ кВТ	$U_n=380$ В
СБР-125	$P_n= 248$ кВТ	$U_n=380$ В
СБР-160	$P_n= 90$ кВТ	$U_n=380$ В
СБО-20	$P_n= 137$ кВТ	$U_n=380$ В

## 5-jadval

## Rotorli ekskavatorlar

3ЭР-500-2	$P_n= 373$ кВТ	$U_n= 6$ кВ	
ЭРГ-350/1000	$P_n= 580$ кВТ	$U_n= 6$ кВ	
ЭРГ-400-17/1,5	$P_n= 876$ кВТ	$U_n= 6$ кВ	
ЭРП-1250-16/0,5	$P_n= 1100$ кВТ	$U_n= 6$ кВ	
ЭРГ-1600-40/1031	$P_n= 3940$ кВТ	$U_n= 6$ кВ	
ЭРГВ 630-9/0,5			ТМ – 630/6
			ТМ – 250/6



2-rasm. Yer osti kon korxonasi elektr ta'minotining tuzilish sxemasi

Yer osti kon korxonasining elektr ta'minoti sxemasi va topshiriq jadvallaridagi qisqartmalar: **BPP** - bosh pasaytiruvchi podstansiya; **YUKTQ**- yuqori kuchlanishli taqsimlovchi qurilmalar; **XL** - havo liniyalari; **T** - kuch transformatorlari; **PKTQ**- past kuchlanishli taqsimlovchi qurilmalar; **KL** - kabel liniyalari; **PM** - pnevmatik mashinalar; **KM** - ko'tarma mashina; **KTQ** - komplet taqsimlovchi qurilma; **N** - suv haydash nasoslari; **YUKU** - yuqori kuchlanishli elektr uskunalar; **V** - bosh ventilyator; **MEP**- markaziy yerosti podstansiyasi; **UI** - uchastkalar iste'molchilari; **U<sub>1</sub>** - birlamchi kuchlanish miqdori; **U<sub>2</sub>** - ikkilamchi kuchlanish miqdori; **S<sub>k</sub>** - Elektr ta'minoti tizimining qisqa tutashuv quvvati; **κ** - **κ<sub>11</sub>** - qisqa tutashuv toklarini hisoblash nuqtalari; **SOI** - stvol oldi iste'molchilari; **PKI** - past kuchlanishli iste'molchilar; **TKI** - texnologik kompleks iste'molchilari; **UTN** - uchastka transformator podstansiyalari; **(S)** - sinxron dvigatel; **(A)** - asinxron dvigatel.

## 6-jadval

Yer osti konchilik korxonalari iste'molchilarining texnik ko'rsatkichlari.

## Bosh ventilyator qurilmalari

Rusumi	Nominal quvvati	Nominal kuchlanishi
ВЦД-25(1)	$P_n = 630 \text{кВт (c)}$	$U_n = 6 \text{кВ}$
ВЦД-25(2)	$P_n = 500 \text{кВт (c)}$	$U_n = 6 \text{кВ}$
ВЦ-31,5	$P_n = 800 \text{кВт (c)}$	$U_n = 6 \text{кВ}$
ВЦ-32	$P_n = 500 \text{кВт (c)}$	$U_n = 6 \text{кВ}$
ВЦО-32М	$P_n = 1250 \text{кВт (A)}$	$U_n = 6 \text{кВ}$
ВЦД - 40	$P_n = 1250 \text{кВт (c)}$	$U_n = 6 \text{кВ}$
ВЦД - 47У (1)	$P_n = 2 \times 1600 \text{кВт (A)}$	$U_n = 6 \text{кВ}$
ВЦД - 47У (2)	$P_n = 3200 \text{кВт (A)}$	$U_n = 6 \text{кВ}$
ВЦД - 47У (3)	$P_n = 1600 \text{кВт (A)}$	$U_n = 6 \text{кВ}$
ВОД - 21	$P_n = 500 \text{кВт (c)}$	$U_n = 6 \text{кВ}$
ВОД - 30	$P_n = 1250 \text{кВт (c)}$	$U_n = 6 \text{кВ}$
ВОД - 40	$P_n = 1000 \text{кВт (c)}$	$U_n = 6 \text{кВ}$
ВОД - 50	$P_n = 2000 \text{кВт (c)}$	$U_n = 6 \text{кВ}$

## 7-jadval

## Pnevmatik mashinalar va suv haydash nasoslari

Pnevmatik mashinalar		Suv haydash nasoslari	
Rusumi	Nominal quvvati	Rusumi	Nominal quvvati
ВП-50/8	$P_n = 300 \text{кВт (c)}$	ЦНС 105-490	$P_n = 250 \text{кВт (A)}$
2ВГ	$P_n = 625 \text{кВт (c)}$	ЦНСК 180-297	$P_n = 250 \text{кВт (A)}$
55В	$P_n = 625 \text{кВт (c)}$	ЦНСК 180-340	$P_n = 315 \text{кВт (A)}$
3Г-100/8	$P_n = 725 \text{кВт (c)}$	ЦНСК 180-425	$P_n = 315 \text{кВт (A)}$
4М10-100/8	$P_n = 630 \text{кВт}$	ЦНСК 180-500	$P_n = 400 \text{кВт (A)}$
2М10-50/8	$P_n = 320 \text{кВт}$	ЦНСК 180-700	$P_n = 500 \text{кВт (A)}$
К-500 61-1	$P_n = 3500 \text{кВт (c)}$	ЦНСК 180-900	$P_n = 630 \text{кВт (A)}$
К-250 61-1	$P_n = 1750 \text{кВт (c)}$	ЦНСК 300-600	$P_n = 800 \text{кВт (A)}$
К-250 61-2	$P_n = 1750 \text{кВт (c)}$	ЦНСК 500-480	$P_n = 1000 \text{кВт (A)}$
ЦК-135/8	$P_n = 1000 \text{кВт (c)}$	ЦНСК 500-640	$P_n = 1250 \text{кВт (A)}$
ЦК-115/9	$P_n = 1000 \text{кВт (c)}$	ЦНСК 500-800	$P_n = 1600 \text{кВт (A)}$
Barcha iste'molchilarning nominal kuchlanishi $U_n = 6000 \text{ В}$		ЦНСК 800-500	$P_n = 1630 \text{кВт (A)}$
		ЦНСК 800-625	$P_n = 2000 \text{кВт (A)}$

## 8-jadval

## Ko'tarish qurilmalari

Rusumi	Nominal quvvati	Nominal kuchlanishi
Ц-2x1,5Г	$P_n = 250 \text{кВт}$	$U_n = 6000 \text{ В}$
2Цx1,1Г	$P_n = 315 \text{кВт}$	$U_n = 6000 \text{ В}$
2x2,5x1,2	$P_n = 400 \text{кВт}$	$U_n = 6000 \text{ В}$
1x2,5x2	$P_n = 500 \text{кВт}$	$U_n = 6000 \text{ В}$
Ц-3,5x2А	$P_n = 630 \text{кВт}$	$U_n = 6000 \text{ В}$
ЦР-4x3/0,7	$P_n = 800 \text{кВт}$	$U_n = 6000 \text{ В}$
ЦР-5 x3/0,6	$P_n = 1000 \text{кВт}$	$U_n = 6000 \text{ В}$
2Ц-5 x2,8	$P_n = 1250 \text{кВт}$	$U_n = 6000 \text{ В}$
2Ц-6 x3/0,6	$P_n = 1600 \text{кВт}$	$U_n = 6000 \text{ В}$
2Ц-6 x2,8	$P_n = 2000 \text{кВт}$	$U_n = 6000 \text{ В}$

## 9.1-jadval

Kon korxonalarini elektrlashtirish fanidan kurs loyihasini bajarish uchun  
ma'lumotlar variantlari jadvali (yer osti kon korxonalari)

V	I1	I2	PM	V	KM	T1	T2	T3	UTN1	UTN2	UTN3
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
1	35 κB	6 κB	ВП-50/3	ВЦД-25(1)	Ц-2x1,5Г	TM 63/6	TM 40/6	TCBП 100/6	TCBП 160/6	TCBП 160/6	TCBП 250/6
2	35 κB	6 κB	2BГ	ВЦД-25(2)	2Ц x1,1Г	TM 100/6	TM 63/6	TCBП 160/6	TCBП 250/6	TCBП 100/6	TCBП 160/6
3	35 κB	6 κB	35B	ВЦ-31,5	2x2,5x1,2	TM 160/6	TM 100/6	TCBП 100/6	TCBП 100/6	TCBП 100/6	TCBП 100/6
4	35 κB	6 κB	3Г-100/8	ВЦ-32	1x2,5x2	TM 250/6	TM 160/6	TCBП 160/6	TCBП 160/6	TCBП 250/6	TCBП 160/6
5	110 κB	6 κB	4M10-100/8 2шт	ВЦО 32м	Ц-35x2A	TM 400/6	TM 400/6	TCBП 250/6	TCBП 250/6	TCBП 400/6	TCBП 250/6
6	110 κB	6 κB	2M10-0/8 3 шт	ВЦД-40	ЦР-4x3/0,7	TM 630/6	TM 630/6	TCBП 250/6	TCBП 250/6	TCBП 400/6	TCBП 400/6
7	110 κB	6 κB	K-500 61-1	ВЦД-47У (2)	ЦР-5x3/0,6	TM 1000/6	TM 1000/6	TCBП2 50/6	TCBП4 00/6	TCBП4 00/6	TCBП2 50/6
8	110 κB	6 κB	K-250 61-1 2шт	ВЦД-47У (1)	2Ц 5x2,8	TM 1600/6	TM 1600/6	TCBП 160/6	TCBП 400/6	TCBП 400/6	TCBП 630/6
9	35 κB	6 κB	K 250 61-2	ВЦД-47У (3)	2Ц-6x3/0,6	TM 1600/6	TM 1600/6	TCBП 400/6	TCBП 630/6	TCBП 630/6	TCBП 400/6
10	35 κB	6 κB	ВП-50/8 2шт	ВОД 21	Ц-2x1,5Г	TM 40/6	TM 63/6	TCBП 100/6	TCBП 100/6	TCBП 100/6	TCBП 160/6
11	35 κB	6 κB	ЦК-135/8	ВОД 30	2Ц-5x2,8	TM 100/6	TM 40/6	TCBП 100/6	TCBП 160/6	TCBП 100/6	TCBП 100/6
12	110 κB	6 κB	ЦК-115/9	ВОД 40	ЦР-5x3/0,6	TM 250/6	TM 100/6	TCBП 160/6	TCBП 160/6	TCBП 250/6	TCBП 250/6
13	110 κB	6 κB	3Г-8-100 3шт	ВОД 50	2Ц-6x2,8	TM 630/6	TM 160/6	TCBП 160/6	TCBП 250/6	TCBП 160/6	TCBП 160/6

## 9.1-jadval davomi

XL1	XL2	KL1	KL2	KL3	KL4	KL5	KL6	KL7	KL8	KL9	KL10	S <sub>n</sub>	K	N
13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27
5 км	1 км	400 м	100 м	300 м	500 м	200 м	400 м	50 м	60 м	600 м	800 м	500 MBA	K <sub>2</sub>	ЦНС 105-450 2 dona
6 км	2 км	500 м	150 м	400 м	600 м	300 м	500 м	60 м	70 м	700 м	900 м	500 MBA	K <sub>3</sub>	ЦНСК 180-297 2 dona
7 км	3 км	600 м	200 м	500 м	500 м	200 м	600 м	50 м	60 м	800 м	800 м	500 MBA	K <sub>4</sub>	ЦНСК 180-340 2 dona
